

**X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining  
Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish  
laboratoriyasi to'g'risida  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

**1.** X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining (keyingi o'rnlarda Markaz deb ataladi) Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasi (keyingi o'rnlarda Лаборатория) to'g'risidagi nizom (keyingi o'rnlarda Nizom deb yuritiladi) Лабораторияning maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, faoliyatiga qo'yiladigan talablarni, uning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

**2.** Лаборатория О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi 849-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

**3.** Лаборатория o'zining faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Hay'atining қарорлари, Markaz direktorining direktiv hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

**II. Лабораторияning vazifalari va funksiyalari**

**4.** Quyidagilar Лабораториянинг asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonuning 17-moddasiga hamda “Advokatura to'g'risida”gi Qonuning 6-moddasiga asosan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi, advokat so'rovi asosida Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish sohasida ekspertiza tadqiqotlarini shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida mutaxassis fikri ko'rsatish hisoblanadi.

**5.** Xalqaro ISO/IEC 17025 standart talablariga asosan Markazning “Menedjment tizimi sohasi bo'yicha siyosati”da belgilangan vazifalarni bajaradi.

**6.** Ekspertiza o'tkazish jarayonlarini xalqaro ISO/IEC 17025 standart talablariga asosan tashkil etish, qo'llaniladigan uslublarni akkreditatsiyadan

bosqichma-bosqich o‘tkazish, shuningdek, sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish va ular natijalarini ekspert amaliyotiga tadbiq etadi.

**7. Лаборатория** yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalgga oshiradi:

Лабораторияning ish yuritishini tashkil etish, ijro intizomiga rioya qilish va hujjatlar ijrosi ta’minlash;

ekspertizalarni, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish samaradorligini oshirish, shuningdek yangi axborot texnologiyalarini joriy etish asosida hujjatlar va topshiriqlarni bajarish;

ish yuritish bo‘yicha Лабораторияда hujjatlar yig‘ma jildlari nomenklaturasining shakllantirish va ularni to‘g‘ri yuritilishini ta’minlash;

Markaz rahbariyati tomonidan Лабораторияга ijro uchun yuborilgan (berilgan) topshiriq, tanbeh, ko‘rsatma xatlari va boshqa hujjatlarni ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash;

har chorakda Лабораторияга kelib tushgan hujjatlarning ijrosi yuzasidan tahliliy ma’lumotlar tayyorlash;

tasdiqlangan rejalgarda muvofiq o‘tkaziladigan yig‘ilishlarga Лаборатория tomonidan kiritiladigan masalalarning loyihasini o‘z vaqtida sifatli tayyorlashni ta’minlash;

soha faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

Лаборатория faoliyatiga tegishli bo‘lgan hamda matnida Лабораторияга bevosita topshiriq mavjud bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hamda Adliya vazirligidan ijro uchun kelgan topshiriqlar, shuningdek Markaz rahbariyati tomonidan “nazorat”ga olingan hujjatlarning ijro etilishini vaqtida ta’minlash;

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 12-sodan qaroriga muvofiq hujjatlar va topshiriqlarning o‘z vaqtida ijro etilishini ta’minlash;

Лабораторияning faoliyati to‘g‘risida belgilangan shakldagi oylik, choraklik, yarim yillik va yillik hisobotlar tayyorlash;

Ish rejada belgilangan topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan ma’lumotlar berish, umumlashtirish, tahlil qilish va ularning natijasi yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish;

Ilmiy kengash majlisi muhokamasiga Лаборатория faoliyatiga oid masalalar yuzasidan materiallarni tayyorlash;

Ilmiy kengash qarorlari, Direktorat va tezkor yig‘ilish qarorlari, direktorning buyruqlarini o‘z vaqtida bajarish;

Agar Лаборатория tegishli tadqiqot usullari akkreditatsiyadan o‘tkaziladigan bo‘lsa, Лаборатория xodimlarini Markaz Sifat menedjmenti faoliyatiga jalg etish, ISO/IEC 17025 standart talablariga asosan o‘tkaziladigan sud ekspertiza tadqiqot natijalari xolisligi va beg‘arazligi hamda maxfiyligini ta’minlash, xodimlar bilim va malakasini boshqarish, sud ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish xonalari, ishchi yuzalar va tashqi muhit sharoitini monitoring qilish, sud ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazishda qo‘llaniladigan o‘lchov vositalari va uskunalari metrologik kuzatuvchanligini ta’minlashda ishtirok etish, texnika xavfsizligiga amal qilish va tadqiqot jihozlar bilan ishlash qoidalarini bilish, tadqiqot fayllarini birlamchi va to‘liq tahlilini o‘tkazishni ta’minlash, bo‘limda ishlash qoidalarini bilish, tadqiqot usullari validatsiyasi va verifikatsiyasini o‘tkazish, akkreditatsiya doirasidagi tadqiqot usullari kuzatuvchanligini ta’minlash maqsadida texnik yozuvlarni yuritish, tadqiqot ob’ektlari bilan ishlash qoidalarini bilish, o‘lchovlar noaniqligini hisoblash, olingan natijalar ishonchlilagini ta’minlash, axborot va menedjment ma’lumotlarini boshqarish, tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va ularni tahlil qilish, risklar va nomuvofiqliklarni boshqarish, shikoyatlar bilan ishlash, faoliyatni yaxshilash va tuzatish harakatlarini olib borish, ichki audit tekshiruvlarida ishtirok etish, rahbariyat tomonidan o‘tkaziladigan menedjment tizimi tahlilida ishtirok etish;

“STQ 15 “Sud-ekspertiza” standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi faoliyatida ishtirok etish;

Лаборатория o‘z vakolatlari doirasida boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **III. Лабораторияning huquqlari va javobgarligi**

**8. Лаборатория o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:**

қопиҷчилик hujjalarda belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma’lumotlarni yozib olish yoki ko‘chirma nusxalar olish;

sud ekspertizasini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan қо‘shimcha materiallar va tekshirish ob’ektlari takdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

tergov harakatlari o‘tkazilayottanda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo‘lish va shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga sud ekspertizasi predmetiga oid savollar berish;

sud muhokamasida sud ekspertizasi predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so‘roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish; ashovyiy dalillar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish;

o‘z xulosasida nafaqat o‘zining oldiga qo‘yilgan savollar bo‘yicha, balki sud ekspertizasi predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo‘yicha ham fikrlarini bayon etish;

xulosasi yoki ko‘rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo‘lgan bayonotlar berish;

agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o‘z ona tilida xulosa takdim etish va ko‘rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

agar huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo‘lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

#### **9. Лабораториянинг мажбуриятлари:**

fuqarolik, iqtisodiy, ma’muriy va jinoyat ishlari, tergovoldi tekshiruv hujjatlari bo‘yicha sud ekspertizalarini o‘tkazish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan, ekspertlik mutaxassisligiga muvofiq tadqiqotlar o‘tkazish;

sud ekspertiza sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

ekspert amaliyatiga yangi usul va uslublarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini sinovdan o‘tkazish;

Лабораторияни texnik ta’milanishi haqida takliflarini o‘rganib chiqish va ularni to‘g‘ri ishlatilishi ustidan nazorat o‘rnatish;

ilmiy-axborotlashtirish va noshirlik ishlarida ishtirok etish;

sud ekspertiza sohasida kadrlarni tayyorlash va sud ekspertlarini malakasini oshirishda ishtirok etish;

sud-tergov idoralari xodimlari bilan uslubiy ishlarni olib borish;

jinoyat va huquqbazarlik sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart sharoitlarni aniqlashga qaratilgan profilaktik ishlarni olib borish;

aholi o‘rtasida xuquqiy targ‘ibot ishlarini olib borish;

birlamchi, qo‘sishimcha, qayta va kompleks ekspertizalarini o‘tkazish;

ekspertlik mutaxassisliklari bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish;

zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlariga asoslangan ekspert tadqiqot uslublari va tavsiyalarni amaliyatga tadbiq etish;

Лабораторияning texnik bazasini takomillashtirish borasida tavsiyalar taylorlash va undan samarali foydalanishni nazorat qilish;

ilmiy maqolalar, uslubiy qo'llanmalar va boshqa nashrlarni tayyorlashda ishtirot etish;

ekspert kadrlarni taylorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

Лабораторияning tayyorgarlik rejalarini muhokama etish, shaxsiy rejalarini bajarilishi haqidagi hisobotlarni tinglash va ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish;

Лаборатория xodimlari va boshqa muassasa mutaxassislarining ishlab chiqarish amaliyotini o'tashini tashkil etish;

ekspert xulosalarini taqrizdan o'tkazish;

ilmiy-amaliy seminarlar, sud ekspertizasining tegishli yo'nalish masalalari bo'yicha uslubiy mashg'ulotlarni o'tkazish;

surishtiruv, tergov, va sud idora xodimlari o'rtasida sud ekspertizalarining imkoniyatlari, ularni tayinlash qoidalari va xulosalarga baho berish bo'yicha uslubiy ishlarni amalga oshirish;

maxsus bilimlar doirasida huquqbazarliklarni oldini olish va ularni sodir etish sabablarini va sharoitlarini bartaraf etish uslublarini ishlab chiqish;

sud eksperti o'zini o'zi rad etishi uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lган taqdirda, bu hakda sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yoki davlat sud-ekspertiza muassasasining yoxud boshqa tashkilotning rahbariga darhol ma'lum qilishini nazorat qilish;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida ekspertning shaxsan ishtirot etishini nazorat qilish;

taqdim etilgan tekshirish ob'ektlari va ish materiallarining saqlanishini ta'minlashini nazorat qilish;

Лаборатория ekspertlarini sud ekspertizasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron bir shaxsga xabar qilishiga yo'l qo'ymaslik;

agar qonunchilik hujjalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat sud-ekspertiza muassasasi rahbaridan tashqari bevosita boshqa biron bir organdan (shaxsdan) sud ekspertizasini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar qabul qilmaslik;

**10.** Лаборатория qonunchilik hujjalariga muvofiq boshqa huquqlar va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **IV. Лаборатория faoliyatini tashkil etish**

**11.** Лабораторияning tashkiliy tuzilmasi Markaz tomonidan tasdiqlangan shtat birliklari doirasida faoliyat yuritadi.

**12.** Лабораторияга О‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan kelishilgan holda Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan mudir rahbarlik qiladi.

**13.** Лабораторияning ekspertlari Markaz direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

**14.** Лаборатория mudiri bo‘lmagan vaqtda uning vazifasi vazifalar taqsimotiga asosan Лабораторияning boshqa eksperti tomonidan amalga oshiriladi va bajariladi.

**15.** Лаборатория faoliyati Markaz direktori tomonidan tasdiqlanadigan mansab yo‘riqnomalarida belgilanadigan mehnat taqsimotiga asosan amalga oshiriladi.

**16.** Лаборатория mudiri:

Лабораторияга umumiylar rahbarlik qiladi, Лаборатория ishlarini tashkillashtiradi, yo‘naltiradi va nazorat qiladi;

Лабораторияга yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Markaz Ilmiy kengashi qarorlari, direktorning buyruqlari hamda topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlaydi;

Markaz ish rejali ishlab chiqilishida ishtirok etadi, ish rejada tegishliligi bo‘yicha belgilangan tadbirlarni bajarilishini ta’minlaydi;

Лаборатория faoliyati sohalariga oid qonunchilik hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi va ularni ko‘rib chiqish uchun direktorga kiritadi;

Лабораторияda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarning sifatli ishlab chiqilishini tashkil etadi;

Лаборатория faoliyati samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qiladi;

Лаборатория xodimlarning Markaz Odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishini nazorat qiladi;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Лабораторияда korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko‘radi, shuningdek huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlaydi, tahlil qiladi, bartaraf etadi;

Лабораториядаjismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yadi, muntazam ravishda tegishliligi bo‘yicha shaxsiy, shu jumladan sayyor qabullarda qatnashadi;

Markaz direktoriga xodimlarni rag‘batlantirish, intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risida takliflar kiritadi;

Лаборатория xodimlaridan mehnat intizomini buzganlik, yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida yoki lozim darajada bajarmaganlik holatlari yuzasidan tushuntirishlar oladi;

Ilmiy kengash majlisida muhokama qilish uchun Markaz rahbariyatiga takliflar kiritadi;

o‘z vakolati doirasida tegishli hujjatlarni imzolaydi.

**17.** Лаборатория xodimlari qonunchilik xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi;

**18.** Markaz Menedjment tizimi sohasida rahbariyat tomonidan o‘tkaziladigan tahlilga mavjud muammolar ro‘yxati va asoslangan takliflar beradi;

**19.** Лаборатория xodimlari o‘zlarining xizmat vazifalarini bajarish vaqtida, yuklatilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqqanliklari, shuningdek huquqqa xilof harakatlar yoki harakatsizligi, xizmat vazifalarini bajarmaganliklari yoxud lozim darajada bajarmaganliklari va xizmat etikasi qoidalarini buzganliklari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.